

## VI-XI ASRLARDA ARABLARNING IJTIMOYIY AHVOLI

Shomirzayeva Matluba  
SHDPI 1- BOSQICH TALABASI  
Otamurodov Doniyorbek

SHDPI 2- BOSQICH TALABASI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada islom dinining paydo bulmasdan ilgari Arabistonning ijtimoiy va iqtisodiy axvolini ochib beradi. Islom dinining paydo bulishidagi shart-sharoitlarini aniqlaydi. Islom dinining paydo bulishida Muhammad s.a.v.ning tutgan roli xahida aytib o'tiladi. Muhammad s.a.v.ning vafotidan keyingi arab qabilalarining ijtimoiy hayotiga baho beradi.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** Arab, Damashq, «baxtli Arabiston», Najd, badaviy, Zodagon, said, Dajla, Frot, feodal, «payg'ambar», zakot, xijrat, harbiy demokratiya, «kofir», xaraj, juz'ya, zakot, sunniylar, gubernator, «oltin davr», kadastrlar, satrap, vaqf, xissa, mazdak, «Sharq papalari», renta, «chodir yopingan odam», shiyya, xorijitlar.

Arablar tarixi odatda uch davrga : 1) Makka-Madina davriga-Islom dini paydo bulmasdan ilgari Arabiston va islom dinining paydo bulish davriga (VI-VII asrlar); 2) Damashk (Suriya) davriga-Ummaviylar dinastiyasining idora qilish davriga (661-750) va 3) Bogdod (Eron-Mesopatamiya) davriga-Abbosiyalar dinastiyasining idora qilish davriga (750-1055) bulinadi; Abbasiyalar dinastiyasining idora qilish davri xalifaliklarning turklar tomonidan bosib olinishi bilan tugadi. Arab xalifaliklarning turli siyosiy markazlari bilan bog'lik bulgan bu uchta xronologik davriga arab feodalizmining rivojlanishi xam asosan muvofiq keladi. Birinchi davrda arab jamiyatida feodallashuv prosessi endi boshlanayotganligi namoyon buladi. Ikkinchi va xususan, uchinchi davrda yevropa feodalizmining xarakterli xususiyatlari tarkib topdi. Territoriya jixatidan Yevropaning turtad bir kismiga teng keladigan juda katta yarim orol bulmish Arabiston yarim orolining kup kismi suvsiz chul va saxrolardan iboratdir, ammo dexkonchilik kilish mumkin bulgan yeri ozginadir. Shuning uchun Arabiston axolisining ozchilik kismigina utrok xayot kechirar va dexkonchilik bilan shugullanar edi. Arablarning kupchiligi esa kuchmanchi – badaviylardan iborat bulib, kuy, echki va tuyaboqar edi. Arabistonning dehqonchilik uchun eng kulay bulgan ulkasi janubiy – g'arbiy viloyat – Yaman yoki «baxtli Arabiston» bulib, bu yerda kadim zamonlardayok muttasil ravishda birining urnini ikkinchisi olib kelgan bir necha yirik kuldorlik davlati bor edi. Xijozning (yarim orolning Kizil dengiz buylab chuzilib ketgan kambar kismining) esa fakat ayrim voxalaridagina dexkonchilik kilish mumkin edi. Yarim orolning eng katta kismi – Najd – sugoriladigan yerlari juda kam bulgan g'oyat katta yassi toglikdan iborat bir joy bulib, fakat chorvachilik uchungina yarar edi.

VI-VII asrlardagi arablarning ijtimoiy tuzumida xali urugchilik belgilari kuchli edi. Arablar – kuchmanchi (badaviy) arablar xam utrok arablar xam – juda kup urug va kabilalargina bulingan edi. Xun olish bor edi. Urugning bayroq a'zolari kurbsizroq qarindoshlariga iqtisodiy jihatdan yordam berishi lozim edi. Har bir qabilaning o'z diniy marosimi bor edi. Qabila va urug'larning boshida shayx va sayidlar turib, hokimiyat faqat shularning qulida edi.

Ana shunday sharoitda arablar sinflarning tashkil topish prosessi tezlashib ketdi. Arab shaharlaridagi aholining quyi tabaqalari o'z ahvolidan norozi edi, ular sudxo'r boylarga nafratlanib qarar edi, bu norozilikni va nafratlanib qarashni dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq qabilalardagi va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi kuchmanchi qabilalardagi oddiy omma ham quvvatladi, bu qabilalar ham yerga muhtoj edi va o'z urug'-qabilasidagi feodallasha boshlagan zodagonlardan jabr-zulm kurmoqda edi. Muhammad s.a.v. (570-632) quraysh qabilasiga mansub bulgan va kambag'allashgan xonadondan chiqqan edi, bu qabila Makkada hukmron qabila edi. Muhammad dastlab cho'pon bulib, keyin badavlat bir xotinga uylanish orqasida savdogar bulib olgan. Lekin uning

sudxurlikka ilgaridan yomon kuz bilan qarab kelishi uning demokratik elementlar bilan yaqinlashuviga sabab buldi. Muxammad din targ'ibotchisi («payg'ambar») sifatida 610 yillarda maydonga chiqdi. Sudxurlikni qoralashdan tashqari, u har bir kishidan kambag'allarga yordam berishni, o'z daromadining o'ndan bir qismini kambag'allarni boqish uchun ajratishni talab qildi. Shu bilan birga urug'lar o'rtasidagi o'zaro urush-janjallarni tuxtatishni ham talab qildi, urug'larning bir-biridan qasos olishga, urug' va qabilalarning tor qon-qardoshlik doirasida bekinib yotishga qarshi chiqdi. Muxammad vujudga keltirgan yangi dinning beshta asosiy qoidasida, ya'ni: 1) bitta xudoga-olloxga ishonish, 2) xar kuni albatta besh vaqt nomozni tark etmaslik, 3) yilda bir marta ramazon oyida ro'za tutish, 4) zakot (kambag'allarga ushur) berish va 5) xaj qilishdan iborat besh farzida xech qanday sotsial islohat yuk edi.

Dastlabki vaqtlarda Makkadagi quraysh aristokratiyasi Muxammadga juda ham dushmanlik kuzi bilan qaradi. Muhammad Makkaning azaldan beri davom etib kelayotgan urf-odatlarining ildiziga bolta urayotgandek, Ka'baning ahamiyatini gumon ostida qoldirayotgandek tuyiladi. Muxammad vafot etgandan keyin, oradan kup utmay, islom orolidan tashqariga chiqib, Vizantiya, Eron yerlarini istilo qila boshladi.

Muxammadning eng yakin vorislari – xalifalar – arab harbiy jamoasining saylab kuyiladigan boshliklari bulib, ular diniy, xarbiy va grajdan xokimiyatni uz kullariga olgan edilar. Ularning karorgoxi Madina shaxri edi. Bu xalifalar chikib kelishlari jixatidan Muxammadning yo karindoshlari yoki yaqin dustlari edi. 632-661 yillar davrida birin ketin Abubakr, Umar, Usmon va Ali idora kildi. Bular ichida ikkinchi xalifaning - Umarning (634-644) idora davri juda katta ahamiyatga buldi. Xuddi shu Umar zamonida Arablar Suriyani, Falastinni, Misrni, Eronni bosib oldilar. Arablar bu davrda bir kancha ajoyib galabalarni kulga kiritdi. Ular Suriyada (636) Yormik daryosi buyida Quddus yonida (638) Vizantiyaliklarni, Kadisiya 637 va Nexavan 642 shaxarlari yonida, kadimiy Ekbatanlar yakinida eronliklarni tor-mor keltirdi. Arablarning Vizantiya va Eron bilan bulgan jangida katta muvaffakiyatlarga erishuvi ularni ruxlantirib, yangi istilolar kilishga niktadi. Suriya, Misr va boshka mamlakatlardagi ezilgan ommaning bir kismi arablarga diniy zulmdan, krepstnoylik jabru-jafosi va moliyaviy zulmidan kutkaruvchilar deb karadi. Arablar uz zulmidan istilolarida odatda asosan maxalliy boylarning mol-mulklarini bosib oladi.

Xukmronlikning dastlabki vaqtlarida xalqni soliq bilan uncha qiynamadi. Ular buysundrilgan axoliga diniy erkinlik va bir qadar siyosiy avtonomiya berdi, idora qilish funksiyasini kupincha mahalliy – diniy jamoalarni boshliqlariga topshirdi. Ammo shu bilan birga ular turli yengilliklar berib, aholini musulmonlikni qabul qilishga qiziqitirdilar. Islom dinini qabul qilganlar arablarning uzi singari barcha soliqlardan ozod qilindi. Arablar istilo qilgan mamlakatlarida mahalliy aholiga aralashmay, alohida harbiy kolloniyalarga bulinib yashadi. Ularning xayotida xarbiy patriarxal soddalik bir muncha vaqtgacha saqlanib qoldi. Mesopatamiyadagi Kufa, Basra va boshqalar, shuningdek, Misrdagi Fustat (keyinchalik Koxira) arablar tomonidan bunyod etilgan xarbiy poseseniyalarning eng yiriklaridan biri edi. Biroq arablar tomonidan bosib olingan mamlakatlarning iqtisodiy va sotsial jihatdan eng tarakkiy topgan qismida yashagan arab zodagonlari oradan kup vaqt utmay mahalliy aristokratiyasi ta'siriga berilib ketdi. Bu ta'sir savdo yaxshi rivoj topgan boy mamlakat bulmish Suriyada ayniqsa kuchli buldi. Arablarning harbiy boshliqlari bu yerda yashab turib, Suriyadagi yuqori sinfning zeb-ziynatli xayotini tez uzlashtirib oldi. Suriyadagi katta yer eglaridan va quldorlardan urnak olib, ularning uzi xam yerlarni batamom xususiy mulk kilib tortib ola boshladi, kullar asray boshladi. Bunday arablar uchun «Madina karilar»ning oddiy patriarxal xayoti maroksiz va eskirib kolgandek kurinardi. Suriyadagi arab aristokratiyasiga, ya'ni ota-bobolarining rasm-odatlaridan kechib, «kofirlar»ning yangi tartiblarini uzlashtirib olgan arab aristokratiyasi yomon kuz bilan karardi.

Abbosiyalar davrida Old va O'rta Osiyoning shuningdek, Shimoliy Afrikaning juda keng territoriyasida ma'lum vaqtgacha tinchlik va xavfsizlik karor topishi natijasida xalifalik iqtisodiy

jihatdan g'oyat taraqqiy topdi. Bu davrda dehqonchilik sohasida katta yutuqlarga erishildi. Sholi, paxta, shafron keng tarqalgan qishloq xujalik ekinlari edi. Juda keng atirgul plantasiyalari, parfyumeriya (atir-upa eliklar) uchun maxsus essensiya berar edi. Arablar qimmatbaxo nasldor ot va quylar urchitardilar. Bu yerda jun, ipak va gazlamalar yaxshi navli pulat va qurol (mashxur Damashq pulati) shishalar va oynalardan yasalgan buyumlar zargarlik va attorlik buyumlari ishlab chiqarilardi. Arab savdogarlari yiroq Shimolgacha, Yuqori Volgagacha va hatto Baltiq dengizi qirg'oqlarigacha savdo qilardilar. Arablar savdosida qul savdosi katta o'rin tutardi. Bu qullar asosan osiyolik, yevropaliklardan iborat edi.

Arablar hukmronligining ilk davrida ancha yengil tortgan xalifalik mexnatkash axolisining axvoli keyinchalik og'irlasha boshladi. Dehqonlar qisman natura shaklida (maxsulot bilan) va qisman pul shaklida katta-katta soliqlar tulardi. Amaldorlarning o'z boshimchaligi va jabr-zulmi dehqonlarning huquqsizligi va ximoyasizligi ularni haqiqatda yarim qul holiga solib quyan edi. Xalifalikda kullarning axvoli juda og'ir edi. Ularning manfaatini ximoya kiluvchi xalifaga karshi bir necha marta kuzgolon kutarildi. Bu qo'zg'olonlar odatdan tashqari uzoq davom etardi va juda xam qattiq bulardi. Chunochi Mansur xalifa ulgandan keyin oradan kup vaqt utmay O'rta Osiyoda dehqonlarning katta qo'zg'oloni kutarildi. U 776 yilda boshlanib, 783 yilda tamom buldi. Bu qo'zg'olonga Marv shahri atrofida chiqqan Muqanna («Chodir yopingan odam») laqabli Xoshim ibn Xakim degan bir kishi boshchilik qildi. Bu qo'zg'olonlar Mazdakiylar mazhabining ta'siri aks etdi. Mazdakiylar mol-mulkining o'rtada bulishini va xayotni noz-ne'matlaridan foydalanishda xamma teng bulishini talab qilar edi. IX asrning oxiri X asrning boshlarida xalifalikning janubida dehqonlar xarakati kutarildi. Bu xarakatga Karmat degan odam bosh bulib, u uzini "payg'ambar" deb e'lon qildi. Uning atrofida juda kuplab qochoq dehqon va qullar kelib tuplandi. Oxir-natijada Karmatchilar Fors qo'ltig'i qirg'oqlarida uziga xos bir dehqonlar respublikasini tuzishga muvaffaq buldi. Karmatchilar xarakati bilan bir vaqtda Basra atrofida qul zanjilari juda katta qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'oloni 14 yil (869-883) davom etdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ABDUJABBOR KABIROV. QADIMGI SHARQ TARIXI TOSHKENT 2016
2. RAJABOV RAVSHAN JAHON TARIXI 1 QISM .RAJABOV RAVSHAN TOSHKENT YANGI ASR AVLODI.
3. F.BOYNAZAROV QADIMGI DUNYO TARIXI.TOSHKENT 2002.
4. VSEVOLOD AVDIYEV QADIMGI SHARQ TARIXI TOSHKENT 1964.
5. ANATOLIY SAGDULLAYEV QADIMGI SHARQ TARIXI.
6. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.
9. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
10. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 398-401.

11. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG‘IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(9), 33-35.
12. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA “TADBIRKOR AYOL” UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(1), 111-113.
13. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
14. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
15. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
16. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
17. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
19. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
20. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
21. O`rta asrlar tarixi V.F. Semenov T. \_1973. 135-148 betlar.
22. Levi-Provansal ., Arabskaya kultura v Ispanii. M., Izd. Vostoch.lit. 1967.
23. Srednevekovnyy Vostok M.,1980.